

“KOMPETENSIYA” VA “TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASI” TUSHUNCHALARINING ILMIY PEDAGOGIK ASOSLARI

Abdurazakova Zebiniso Akmalxon qizi
Qo‘qon davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Kompetensiya” va “tadqiqotchilik kompetensiyasi” tushunchalarining ilmiy-pedagogik asoslari hususida ayrim fikr mulohazalar bayon etilgan. Kompetentlik inson hayotiy faoliyatida namoyon bo‘ladi; shaxsiy, psixologik xususiyatni yorituvchi integral sifat tarzida e’tirof qilinadi; mazkur sifatga ega shaxs turli vaziyatlarda mavjud bilim, ko‘nikma, malaka, tajribadan kundalik vazifa va muammolarni samarali hal qilish maqsadida oqilona foydalanadi; yangi bilimlarni o‘zlashtirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar. Kompetensiya, tadqiqotchilik kompetensiyasi, ijtimoiy-pedagogik yondashuv.

НАУЧНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЙ «КОМПЕТЕНЦИЯ» И «ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ»

Абдуразакова Зебинисо Акмалхон кизи
Аспирант Кокандского государственного университета

Аннотация. В данной статье представлены некоторые соображения о научно-педагогических основах понятий «Компетентность» и «исследовательская компетентность». Компетентность проявляется в жизни человека; она признается неотъемлемым качеством, отражающим личностные, психологические характеристики; человек, обладающий этим качеством, рационально использует имеющиеся знания, навыки, квалификации, опыт в различных ситуациях для эффективного решения повседневных задач и проблем; служит для освоения новых знаний, саморазвития и совершенствования.

Ключевые слова. Компетентность, исследовательская компетентность, социально-педагогический подход.

SCIENTIFIC PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF THE CONCEPTS OF “COMPETENCE” AND “RESEARCH COMPETENCE”

Abdurazakova Zebiniso Akmalxon qizi
Research doctoral student at Kokand State University

Abstract. This article presents some considerations on the scientific and pedagogical foundations of the concepts of “Competence” and “research competence”. Competence is manifested in human life; it is recognized as an integral quality that reflects personal, psychological characteristics; a person with this quality rationally uses the available knowledge, skills, qualifications, experience in various situations to effectively solve everyday tasks and problems; serves to master new knowledge, self-development and improvement.

Keywords. Competence, research competence, socio-pedagogical approach,

Kirish. Pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlar shaxs (mutaxassis) qiyofasida namoyon bo'ladigan kompetensiyalarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish imkonini beradi:

1) tayanch kompetensiyalar (bular kelib chiqishi, ijtimoiy maqomi, kasbi-kori, mutaxassisligidan qat'iy nazar har bir shaxsning zamonaviy jamiyatda yashashi, faoliyat yuritishi uchun asos bo'luvchi kompetensiyalar sanaladi);

2) maxsus (kasbiy) kompetensiyalar (ular mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni samarali olib borilishi, tegishli sohada kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish imkoniyatini ta'minlovchi kompetensiyalar hisoblanadi).

Mualliflar tomonidan “kompetensiya” tushunchasiga berilgan quyidagi ta'riflar uning mohiyatini yorqinroq anglashga yordam beradi:

shaxsning ma'lum sohada mahsuldor va samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan sifatlari[1.B.47]; shaxsning faoliyatda mustaqil, muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim va ijtimoiylash jarayonida mavjud bilimlari, tajribasiga asoslanuvchi umumiy qobiliyati va faoliyatni tashkil etishga tayyorligini namoyon etuvchi umumlashma sifati; mutaxassisning o'zi egallagan kasb sohasidagi faoliyatini tashkil qilish, majburiyatlarini bajarishga tayyorligi; rejalashtirish, amalga oshirish hamda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini baholashni o'z ichiga oluvchi o'qitish jarayonini boshqarish qobiliyati; shaxsning doimo o'sib boruvchi tasnifi bo'lib, real hayotiy vaziyatlarda yuzaga kelgan muammolarni yechish qobiliyati, o'z bilimi, o'quv va hayotiy tajribalari, qadriyatlari va qiziqishlarini unga safarbar etish imkoniyatlari; shaxsning u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyat samaradorligini ta'minlovchi bilim, ko'nikma va malakalari, qobiliyatining yaxlit butunligi; faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish qobiliyati; bilim va malakalarni amaliyotda qo'llay olish qobiliyat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yuqorida bayon qilingan tavsiflar asosida kompetentlikka xos bo'lgan xususiyat va sifatlarni yoritish mumkin: kompetentlik inson hayotiy faoliyatida namoyon bo'ladi; shaxsiy, psixologik xususiyatni yorituvchi integral sifat tarzida e'tirof qilinadi; mazkur sifatga ega shaxs turli vaziyatlarda mavjud

bilim, ko'nikma, malaka, tajribadan kundalik vazifa va muammolarni samarali hal qilish maqsadida oqilona foydalanadi; yangi bilimlarni o'zlashtirish, o'z-o'zini rivojlantirish va takomillashtirishga xizmat qiladi.

“Tadqiqot” so‘zining lug‘aviy manosi — biror narsani chuqur o‘rganish, tahlil qilish, uning mohiyatini anglashga qaratilgan harakat. Bu so‘z arab tilidagi "tahqiq" so‘zidan olingan bo‘lib, haqiqatni topish, malum bir masala yuzasidan asosli xulosalar chiqarishga qaratilgan faoliyatni anglatadi. Qisqacha aytganda: tadqiqot — bu o‘rganish, tekshirish, analiz qilish, isbotlash va yangi bilim yaratish jarayonidir. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “tadqiqotchilik – tadqiqot bilan mashg‘ul bo‘lish, tadqiqot ishlari” sifatida keltiriladi. Rus tilidagi lug‘atda keltirilishicha “Isledovaniya” “Tadqiqot so‘zi” ildizi “sled” “iz” yani biror bir narsani izlash, kuzatish izidan borish manolariga ega bo‘lib “izidan borish” manosini anlatadi.

Muhokama va natijalar. Ingliz tili lug‘atida “Research” “Tadqiqot” manosi faktlarni aniqlash, nazariyalarni o‘rnatish yoki qayta ko‘rib chiqish, yangi xulosalar yoki bilimlarni ishlab chiqish uchun mavzuni tizimli tekshirish yoki o‘rganish. O‘zbek olimi I.To‘xtasinovga ko‘ra, tadqiqot — bu bilimni chuqurlashtirish, haqiqatga yetishish yo‘lida qilinadigan izchil faoliyatdir. Rus olimi V.V.Krayevskiy tadqiqotni “ilmiy asoslangan metodlar orqali yangi bilim olish jarayoni” deb ataydi.

Amerikalik olim John W.Creswell esa tadqiqotni “ma’lumot yig‘ish, tahlil qilish va u orqali muammoni tushunish jarayoni” sifatida izohlaydi.

John Dewey fikricha, “o‘quvchi mustaqil fikrlashga o‘rganmasa, haqiqiy ta’lim bo‘lmaydi. Tadqiqot — o‘qituvchining asosiy metodidir”. Paulo Freire esa “Tadqiqotga asoslangan ta’lim — bu talabning dunyoni o‘zgartirishiga zamin yaratadi.”

Tadqiqotchilik kompetensiyasi mohiyatini tushunish uchun olimlar tomonidan turli yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning bir guruhi tadqiqotchilik kompetensiyasi kompetentlikning asosiy tarkibiy qismi sifatida qabul qilishni ta’kidlaydi, ikkinchi bir guruh mutaxassislar esa tadqiqotchilik faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar bir butun majmuidir deb hisolashadi. Bu borada biz o‘z tadqiqotimizda tadqiqotchilik jarayoni uchun quyidagi ishchi ta’rifni tavsiya qilamiz. Tadqiqotchilik kompetensiyasi – deganda biz tanlangan muammoni yechishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, mustaqil bilishga yo‘naltirilgan tadqiqotchilik jarayonida shakllanadigan shaxsiy ko‘nikmalarni deyish mumkin. Tadqiqotning asosiy g‘oyasi faoliyatning dolzarb ilmiy muammolarni ko‘rish, shakllantirish va yechish, yangi ijodiy yechimlarni topish va ularni amaliy faoliyatga joriy etishga qobiliyatli talabalarni ilmiy-tadqiqotchilik faoliyatga jalb etish va ilmiy-tadqiqotchilik faoliyat doirasida ularning uzluksiz innovatsion tayyorgarlik tizimini ishlab chiqishga qaratilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki: Tadqiqot — bu o'quvchi yoki o'qituvchi tomonidan bilim olish, muammoni hal qilish va tushunchalarni aniqlashtirish maqsadida olib boriladigan izlanish faoliyatidir. Unda savol qo'yish, ma'lumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish kabi bosqichlar mavjud. Pedagogik jarayonda tadqiqot — bu mustaqil fikrlashni, tanqidiy yondashuvni, izlanishga qiziqishni va axborot bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Tadqiqot kompetensiyasini rivojlantirish o'quvchilarni faol, ongli va mas'uliyatli o'rganuvchiga aylantiradi. Ayniqsa, kelajak o'qituvchisi uchun tadqiqot nafaqat kasbiy rivojlanish vositasi, balki ta'lim sifatini oshirishning muhim omilidir. Shu sababli, zamonaviy ta'limda tadqiqotga asoslangan o'qitish usullari keng qo'llanilmoqda.

Xozirgi zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, tadqiqot — bu muammoni anglash, malumot yig'ish, tahlil qilish va xulosa chiqarish orqali bilim yaratish jarayonidir. U o'quvchi va o'qituvchida mustaqil fikrlash, tahlil qilish, manbalar bilan ishlash va to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Tadqiqot faoliyati orqali talim mazmuni chuqurlashadi, yoshlarda intilish, mantiqiy fikrlash va ijodiy yondashuv shakllanadi. Talimda tadqiqotga asoslangan yondashuvni joriy etish o'quv jarayonini samarali, faol va hayotga yaqinlashtiradi. Shu sababli, tadqiqot olib borish — zamonaviy pedagogikaning asosiy qismidir.

Tadqiqotchilik kompetensiyasi ta'lim tizimida ilmiy faoliyatni samarali olib borish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. R.D.Dornyei tomonidan ilgari surilgan fikrga ko'ra, tadqiqotchilik kompetensiyasining asosiy elementlari ilmiy muammolarni aniqlash, tadqiqot metodologiyasini ishlab chiqish, natijalarni tahlil qilish va baholashdan iboratdir. Bu kompetensiya nafaqat o'qituvchining ilmiy faoliyatini, balki o'quvchilarning ilmiy faoliyatga bo'lgan yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishning metodikasi bo'lajak o'qituvchilarga ilmiy izlanishlarni amalga oshirish, tahlil qilish va ilmiy metodlarni to'g'ri qo'llashni o'rgatishga qaratilgan.

A.M.Belkin tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishda o'qituvchining metodik mahoratini oshirish va ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishga rag'batlantirishning ahamiyatini belgilagan. U o'qituvchilarning ilmiy ishlarini o'rganishda o'zaro tahlil qilish va tajriba almashishning samarali ekanini ko'rsatgan.

A.V.Xutorskoy tadqiqotchilik kompetensiyasini o'quvchining mustaqil ravishda muammoni qo'ya olish, gipoteza ilgari surish, kuzatish, tajriba o'tkazish, natijalarni tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyatlari majmui sifatida izohlaydi. I.A.Zimnayaning ta'kidlashicha, tadqiqotchilik kompetensiyasi — bu shaxsning motivatsion, kognitiv, operatsion va reflektiv komponentlar birligida namoyon bo'ladigan, yangi bilimlarni mustaqil egallash va yaratishga yo'naltirilgan integrativ

sifatidir. N.F.Talyzina tadqiqotchilik kompetensiyasini o'quv faoliyatining yuqori darajasi deb baholab, unda nazariy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish va ilmiy bilish metodlarini egallash muhimligini ko'rsatadi.

L.Z.Namazbayeva o'z ishida "tadqiqot faoliyati deganda tadqiqotchilik xulq-atvoriga asoslangan qidiruv faoliyati mexanizmlari harakati natijasida shakllanadigan intellektual-ijodiy faoliyatning alohida turi tushuniladi"-degan ta'rifni keltiradi. Demak, tadqiqotchilikni intellektual va ijodiy faoliyatning alohida turi sifatida qarash zarur, chunki ilmiy izlanishlar faqat faktlarni yig'ish va tahlil qilishni emas, balki yangi g'oyalar, konsepsiyalar hamda yechimlar yaratishni talab etadi.

Xulosa. Yuqoridagi yondashuvlarga tayangan holda, tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu shaxsning ilmiy muammoni anglash, uni hal etish metodlarini tanlash, tadqiqotni amalga oshirish, natijalarni tahlil qilish va refleksiya asosida yangi bilim yaratishga tayyorligini ifodalovchi integrativ kasbiy sifatdir.

Shu jihatdan biz tadqiqotchilik kompetensiyasi tushunchasiga quyidagicha pedagogik yondashuvni ilgari surdik:

"Tadqiqotchilik kompetensiyasi – bu shaxsning ilmiy muammoni mustaqil ravishda anglay olish, uni hal etishga doir maqsad va vazifalarni belgilash, mos metodlarni tanlash va qo'llash, olingan natijalarni tahlil qilish hamda refleksiya asosida yangi bilim va amaliy yechimlar yaratishga yo'naltirilgan integrativ kasbiy sifati bo'lib, u motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyatli va refleksiv komponentlar birligida namoyon bo'ladi."

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Косяков Д. Компетенция и компетентность // <https://zaochnik.com/spravochnik/pedagogika/teorija-obuchenija/kompetentsiya-i-kompetentnost-v-pedagogike>.
2. Селевко Г.К. Компетентности и их классификация // Ж. Народное образование. – М.: 2004. - №4. – С.139-140
3. Михеева Т.Б. "Компетенция" и "компетентность": к вопросу использования понятий в современном российском образовании // Ж. Ученые записки Забайкальского ГУа. Серия: Педагогические науки. – Чита: 2011. - №3. – С. 111
4. Mardia Rahman. Professional Competence, Pedagogical Competence and the Performance of Junior High School of Science Teachers // <https://pdfs.semanticscholar.org/79e6/dca0b4a0b51fa52205f19690f0dc023f49e0.pdf>.